

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI  
MUSIQIY TA‘LIM KAFEDRASI**

**Nurullayev Farrux Gaybulloyevich**

**MAKTABGACHA TA‘LIM  
MUASSASALARIDA MUSIQIY  
TARBIYA**



**O‘quv – uslubiy qo‘llanma**

**“Durdona” nashriyoti  
Buxoro, 2022**

**Tuzuvchi:** *Farrux Nurullayev* «Musiqiy ta'lim» kafedrası doçenti,  
*n.φ.φ.ð. (PhD)*

**Mas'ul muharrir:** *Rajabov To'xtasin Ibodovich* - «Musiqā ta'limi»  
kafedrası mudiri, p.φ.φ.ð., dotsent.

**Taqrizchilar:**

*Madrimov Bahrom Xudoynazarovich* - «Musiqā ta'limi» kafedrası  
*professori*

*Mustafoyev B.I.* - Buxoro viloyat XTXQTMOHM dotsenti.

*Mazkur metodik qo'llanma 5111100 "Musiqā ta'limi" yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, «Maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqiy tarbiya» fani dasturiga asoslangan holda tuzilgan. Unda ajdodlarimizga munosib avlodni tarbiyalashda musiqaning ham munosib o'rni, bolani estetik tarbiyalashdek sharaflī ishni to'g'ri yo'lga qo'yish, musiqā – estetik tarbiya, demokratik jamiyat kishisini garmonik tarbiyalash yo'lida olib borilayotgan ulkan ishning tarkibiy qismi ekanligi haqida ilmiy ma'lumotlar va metodik tavsiyalar berilgan*

*Mazkur metodik qo'llanma Buxoro davlat universitetining o'quv uslubiy kengashining  
2022-yil 30-yanvardagi 5-sonli yig'ilish qarori bilan tasdiqlangan.*

## KIRISH

Mustaqil O'zbekistonning kelajagini, ertasini yoshlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Musiqa san'ati insonning yoshligidan unga bevosita va kuchli ta'sir o'tkazib, uning umumiy madaniy rivojida katta o'rin tutadi. Demokratik jamiyat madaniy hayotida yanada kengroq o'rin tutayotgan musiqa kishiga butun hayot davomida uning doimiy hamrohi hisoblanadi. Musiqa yagona san'at bo'lib, inson yuragiga juda chuqur kirib borib, ana shu qalb tug'yonini yorqin ifodalash qudratiga ega.

Demak, ajdodlarimizga munosib avlodni tarbiyalashda musiqaning ham munosib o'rni borligi ayni haqiqat, bolani estetik tarbiyalashdek sharaflilikni to'g'ri yo'lga qo'yish bizga, ya'ni, bo'lajak kadrlar zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi.

Musiqa – estetik tarbiya, demokratik jamiyat kishisini garmonik tarbiyalash yo'lida olib borilayotgan ulkan ishning tarkibiy qismiga aylanmog'i kerak. Bolalar bilan musiqali ish olib borish ayniqsa katta ahamiyat kasb etadi. Musiqa bola qalbida kuchli emotsional tuyg'u uyg'otadi.

Demak, musiqa san'ati va ta'lim-tarbiyasi kishidagi insoniy fazilatlarni rivojlantirib, ruhiy poklanish va yuksalishga da'vat etadigan, insonning ichki olamini boyitadigan, imon-e'tiqodini, irodasini mustahkamlaydigan, ijodini uyg'otadigan qudratli botiniy kuch – ma'naviyatning yuksalishini ta'minlaydi. Musiqa yordamida uning badiiy idroki o'sib, hissiyotini yanada boyitib boradi. Bolalarda musiqaviy idrokni o'stirmay, ularning musiqaga mehr-muhabbatini yetarli darajada qiziqitirmay turib, har tomonlama jismoniy boy, ma'naviy va qat'iy ahloqiy sifatlarni tarbiyalab bo'lmaydi.

Yunon faylasufi Platonning fikricha, davlatning kuch-qudrati unda qanday musiqa, qaysi ohang va qay ritmda yangrayotganligiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq. Davlat uchun insonni yuksaklikka ko'tarishga yordam beruvchi musiqa kerak deb hisoblagan .

Musiqa yoshlikdan uyg'ongan qiziqish kishining keyingi musiqaviy rivozida kuchi ta'sir o'tkazadi, boshqa ko'nikma va didlarning shakillanishini ta'minlaydi, yaxshi musiqalididni tarbiyalaydi. Musiqa estetik va manaviy kayfiyatning ulkan manbayidir. Musiqaning bola hissiyoti va shakillanishiga, uning mazmunini tushunish va his etishga katta ta'sirini hisobga olganda haqqoniy va voqiylikni to'g'ri aks ettirgan musiqali asardan o'rinli foydalanish alohida o'rin tutadi. Musiqali obrazlar shakillanishining asosiy manbayi tabiat va kishi nutqiga mos kelishiga, atrof-olamdagi go'zallikni idrok etishiga bevosita bog'liqdir.

## I BOB. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI MA'NAVIVY ESTETIK TARBIYALASHDA MUSIQANING O'RNI

### 1.1. Bolalarni ashula aytish, musiqa tinlash va musiqaviy-ritmik harakatlarni o'rgatish



Ibn Sino ham musiqaning hissiy ta'sir kuchini e'tirof etgan holda uni o'zining meditsina kitoblarida aks ettirgan hamda ruhiy kasalliklarni davolashda shifo dasturi sifatida tavsiya qilgan. "Tib qonuni" asarida bir o'rinda musiqaning ruhiy ta'sir kuchiga baho berib, gudakning tarbiyasidagi ahamiyatini shunday ta'riflaganlar: "Gudakning tanasi chiniqishi uchun ikki narsa zarur: biri uni asta qimirlatib tebratish, ikkinchisi onasining qo'shig'i (allasi). Birinchisi tanasiga, ikkinchisi – ruhiga tegishlidir".

Maktabgacha yoshdagi bolalar musiqa tarbiyasi, uning taraqqiyoti timsolida yurtimizning porloq kelajagini ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Musiqali idrok etishning vazifasi va mazmunini aniqlash muhimdir. Bular shaxsning har tomonlama rivoji, jumladan, estetik tarbiyasi vazifalar bilan bog'liq, umumiy maqsadlar bilan belgilanadi. Bunday vazifalar bolalarni musiqa sohasidagi faoliyatga jalb etish, badiiy musiqaga estetik idrok etishni va emotsional o'zlashtirishni rivojlantirish, unga muhabbatni tarbiyalash, musiqali qobiliyatni o'stirish, musiqali didni shakllantirish, bolalarda badiiy ijodkorlik iqtidorini rivojlantirishdan iborat bo'lmog'i kerak.

Musiqaning bola hissiyoti va intilishiga, mazmuniga va his etishiga katta ta'sirini hisobga olganda, haqqoniy va voqeyilikni to'g'ri aks ettirgan musiqali asardan o'rinli foydalanish alohida o'rin tutadi. Musiqiy san'at uchun odamning fikrlash va ifodalash hissiyoti asos bo'lib xizmat qiladi. Musiqa tovush bilan hamohanglik rivojida dastlab nutq va raqs bilan bog'liq bo'lgan edi. Musiqa mehnat harakati ritmi bilan moslashib, bir maqsadga intilayotgan kishilarni bir-birlariga birlashtirishni osonlashtiradi.

Nutq ohanglarini, mehnat jarayonlari ritmlari va musiqali ohanglarning umumlashuvi natijasida xalq musiqasi shakllanadi. Xalq san'ati manbalariga asoslangan musiqa hamisha jozibador bo'lib, qalbdagi turli his-hayajonlar uyg'otadi. Shu bilan birga, musiqada tovushlarga va tasviriy holatlarga taqlid qilish hollari bor, ammo masalaning mohiyati bular bilan belgilanmaydi. Musiqali obraz o'zining aniq ko'rinishi bilan bog'liqdir.

Mustaqil O'zbekistonning kelajagi, ertangi kun taraqqiyoti egalari bo'lmish bolalarni estetik va ma'naviy boy, tarbiyali shaxs sifatida tarbiyalash muhim masaladir. Bu maqsadni amalga oshirishda musiqaning ham alohida o'rni va o'ziga xos xususiyatlari bor. Maktabgacha tarbiya muassasalarida musiqiy tarbiya — bu bir aniq maqsadga yo'naltirilgan, ya'ni maktabgacha yoshdagi bolani estetik, axloqiy, aqliy rivojini amalga oshirish, bolani shaxs sifatida tarbiyalash, uni dunyoqarashini kengaytirish, o'z iqtidorini namoyon qila olishga, estetik jihatdan musiqani tushunishga, unga ijodkorona yondasha olishga o'rgatishdan iboratdir.

Har bir bola musiqaning qaysi yo'nalishini o'rganishidan qat'iy nazar uning yosh xususiyatlarini, psixologik rivojini musiqa rahbari nazarda tutishi lozim. Unda uzluksiz davom etadigan bir butun ta'lim-tarbiya jarayonining belgilovchi ilk turi "maktabgacha ta'lim" deb ataladi. Birgina shu yondashuvning o'ziyoq tarbiyaga mehribonlik va adolat bilan qarashni talab etadi. Negaki, bugunki yosh avlodlarni XXI asrda kuchga to'lib, sog'lom, bilimli, aqlli bo'lib jamiyatimizning faol a'zolariga aylantirishdek ulkan vazifa musiqa rahbari va tarbiyachi zimmasida turibdi.

Agar kichik yoshlarimizdagi shijoatni, kuch-qudratni, bilimdonlikni hamda